

Logoped shaxsi va logopediya fanini o‘qitish samaradorligining ahamiyatি

Baxadirova Zulfizar Azimbayevna

Xalqaro Nordik universiteti

“Pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi,

Xalq ta’limi a’lochisi

mustaqil izlanuvchi

zuliya2029@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola logoped shaxsining roli va logopediya fanini o‘qitish samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Logopediya — nutqni rivojlantirish va buzilishlarni tuzatish bilan shug‘ullanuvchi tibbiy soha bo‘lib, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Logoped shaxsi nafaqat nutqni to‘g‘ri va ravon qilishni o‘rgatib, balki o‘quvchilarning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Logopediya fanini o‘qitish samaradorligini oshirish, pedagogik metodlar va texnologiyalarni qo‘llash, shuningdek, logopedik xizmatlarni ta’lim muassasalarida yanada kengaytirish, o‘quvchilarning nutq rivojini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan bo‘yicha samarali o‘qitish, shaxsning nutqiy va kognitiv qobiliyatlarini mustahkamlashga yordam beradi. Maqola, shuningdek, logopedik xizmatlarning ta’lim tizimidagi ahamiyatini, pedagogik yondashuvlarni va o‘qitish samaradorligini ta’minalash usullarini muhokama qiladi. Kasbiy kompetentlikning asosini tashkil etuvchi metodik kompetentlikni shakllantirish orqali bo‘lajak kasb egasida maqsadga qaratilgan harakatlarni bajarishning eng samarali, tejamkor va natijaviy usullarini yaratish, saralash, tanlash hamda qo‘llash malakalarini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga e’tibor berilmoqda.

Kalit so’zlar: Logoped shaxsi, professional ta’lim, logopediya.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sон “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”ги,¹ 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-sон “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ги² qarorlari,

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sон “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”ги Qarori

³. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-sон “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ги² Qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF–5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” hamda, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi hamda, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalgalashirishda ijobjiy hizmat qiladi. Hozirgi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki boshqa davlatlarda ham nutqiy hamda rivojlanishida o‘ziga xos buzilishlarga ega, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilar, o‘quvchilar sonining salmoqli darajada ortganini ko‘rishimiz mumkin. Bu holat tor doiradagi mutaxassislar, xususan maxsus pedagoglar: logoped, oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog va boshqa soha egalariga bo‘lgan talabni oshishiga olib keladi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning turfa ko‘rinishlari bilan pedagogik jarayonni tashkil qilish umumta’lim muassasalaridagi jarayondan farqlanadi. Bunda maxsus pedagogga qo‘yiladigan malaka talablari o‘zgaradi, ya’ni ular jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiliklari bo‘lgan bolalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishlari lozim bo‘ladi. V.A.Slasteninning fikricha, “ta’lim o‘qituvchining o‘quvchilarga tayyor bilimlarni “etkazish” jarayoni emas, balki ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar orasidagi aloqa, munosabat; shaxs rivojlanishi maqsadida pedagogik jarayonni ro‘yobga chiqarish; o‘quvchining tashqi va ichki faolligini rag‘batlantirish va boshqarish jarayonidir”. Atoqli psixolog, professor L.S.Vigotskiy imkoniyati cheklangan bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o‘rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta’limotini ishlab chiqqan. Uning “Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari” nomli asarida imkoniyati cheklangan bolalar bilan rivojlaniruvchi ta’limni olib borish, korreksiyalovchi, kompensatsiyalovchi usullarni amalgalashirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. L.S.Vigotskiy imkoniyati cheklangan bolalarning nafaqat “salbiy”, balki “ijobjiy” tomonlarini ham o‘rganib, potensial qobiliyatini inobatga olgan holda ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqat qaratadi. Logopediyada ta’lim texnologiyasi va metodologiyasi o‘rtasidagi asosiy muhim qarashlar L.R.Muminova, M.Yu.Ayupova, L.S.Volkova va boshqalarning adabiyotlarida batafsil yoritilgan.

Bo‘lajak logopedlarni “Logopediya” o‘quv faniga oid kommunikativ, motivatsion talablarni optimallashtirishning didaktik ta’minoti nutqida kamchiligi bor bolalarni tashxislash va ular nutqini tuzatishning samarali texnologiyalari bilan qurollantirishda muhim o‘rin tutadi. Logoped umumnazariy va maxsus ixtisosliklar bo‘yicha bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi kerak. Bu bilimlarning majmui va kengligi logopedda nuqsonli rivojlanishning tipologiyasi va tarkibi,

nutqiy nomukammallikning oldini olish va uni bartaraf etish usullari, psixologik-pedagogik ta'sir etish metodlari to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

Logoped nutq buzilishlarini payqab olishi, ularni tuzatish va bartaraf etish usullari hamda metodlarini egallagan bo‘lishi, bunday nuqsonlarning oldini olishga doir profilaktik ishlarni yo‘lga qo‘ya bilishi, nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning muhim psixik xususiyatlarini bilishi, ularni tarbiyalashning usullari hamda metodlarini yaxshi egallagan bo‘lishi kerak. Oliy miya qobig‘i faoliyatini bilish bolaning nutq kamchiliklarini aniqlash va differensiallash, shuningdek korreksion ish usullarini to‘g‘ri tanlash imkonini beradi. Logopedning o‘z ixtisosи bo‘yicha dasturlarni, logopediya bo‘yicha tadqiqotlar va metodik qo‘llanmalarni bilishi ham soha bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirishda katta ahamiyatga ega. Bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va ularning buzilgan nutqlarini tuzatish borasida olib boriladigan ishlarning samaradorligiga erishish uchun, logopedning shaxsi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Logoped nutqida turli buzilishlar bo‘lgan bolalarga mакtabgacha tarbiya yoshida ham, maktab yoshida ham ona tilini o‘qitishning maxsus metodlaridan foydalan olishi kerak. Kasbiga qiziqish, o‘z kasbini va bolalarni sevish, o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchanlik; pedagogik ijodiy fikr va kuzatuvchanlik, samimiylik, kamtarlik, mas’uliyatlilik, so‘zda va amalda kat’iylik va izchillik logoped shaxsiga xos asosiy sifatlar bo‘lmog‘i lozim.

Logoped ilg‘or tajribalarni umumlashtirib, bolalarning nutqini tuzatishning eng yaxshi vositalari bo‘yicha izlanish olib borishi kerak. U egallab olishi lozim bo‘lgan malakalar keng va turlichadir: o‘quv-bilish (adabiyotlar bilan ishslash, bolani kuzatish, pedagogik jarayonni modellashtirish, tuzatish-tarbiyalash orqali ta’sir etishning samarali yo‘llarini tanlash va boshqalar); o‘quv-tashkiliy (istiqbol va kalendar rejalarini yaxshi bilish va tuzish, yakka tartibda va guruhli mashg‘ulotlar o‘tkazish, ko‘rgazmali jihozlarni yaratish, keng qamrovli ta’sir etishni ta’minalash hamda bu qamrovda ishtirot etish va h.k.); o‘quv-pedagogik (mashg‘ulotlarni tahlil qilish, korreksiyalash usullarini bilish va to‘g‘ri qo‘llay olish va h.k.).

Bundan tashqari, logopedning ishi deontologiya tamoyillariga qat’iy amal qilishga asoslanishi kerak, ya’ni logoped nutqi buzilgan shaxs, uning karindoshlari, ish joyidagi hamkasblari o‘rtasida kechadigan o‘zaro munosabatlarni e’tiborga olishi va kerak bo‘lganda to‘g‘ri tashkil qilishga yordam berishi kerak.

Pedagogik deontologiya pedagogik etika va estetika, pedagoglik burchi va pedagoglik odobi haqidagi ta’limotlarni o‘z ichiga aladi. Unga amal qilishda logopeddan nutqida kamchiligi bor bolaning ota-onalari psixologiyasini tushunishi va ular bilan bir qatorda qayg‘urishi talab qilinadi. Logoped juda

sabotli, tadbirkor va xayrixoh bo‘lishi, shifokor o‘z bemori va uning yaqin kishilariga qanday muomalada bo‘lsa, logoped nutqi buzilgan shaxsga va uning ota-onalariga xuddi shunday munosabatda bo‘lishi lozim. Nutq buzilishlarining og‘ir jihatlari va, muhim, mexanizmlarini aniqlashda, nutq kamchiligiga ega shaxs haqida oldindan ma’lumot to‘plashda ehtiyojkorlik bilan ish tutishi, nutq buzilishlarining tashqi ko‘rinishini, ularning mohiyatini hisobga olishi kerak.

Logoped va bolalar muassasasi shifokori, logoped va tarbiyachi, logoped va pedagog o‘rtasida o‘rnatiladigan o‘zaro to‘g‘ri munosabatlar pedagogik deontologiyaning muhim sharti hisoblanadi.

Logoped nutqi atrofdagilarga — nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham namuna bo‘lishi lozim. Logoped yagona nutqiy tartibni ta’minkaydi, maxsus bolalar muassasalaridagi o‘rta va kichik xodimlarga nutq madaniyatini o‘rgatadi, qator hollarda, masalan, maxsus bolalar uylari sharoitida barcha o‘quv-tarbiyaviy jarayonni boshqaradi.

Logopediya fan sifatida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. U tilning, nutqning ijtimoiy mohiyati, bolaning nutqi, tafakkuri va butun ruhiy faoliyatning chambarchas bog‘liqligi bilan belgilanadi.

Nutq vazifasi insonning muhim ruhiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tafakkur qobiliyatlar shakllanadi. So‘zning ahamiyati o‘z-o‘zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu munosabat bilan o‘zida nafaqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham namoyon qiladi. Ular aynan o‘xshash emas va ma’lum darajada bir-biriga bog‘liq bo‘lмаган holda paydo bo‘ladi. Lekin bolaning ruhiy rivojlanishi jarayonida murakkab, sifat jihatdan yangi birlik nutqiy tafakkur, nutqiy fikrlash faoliyati paydo bo‘ladi.

Nutqiy muomala qobiliyatini o‘zlashtirish o‘ziga xos insoniy, ijtimoiy aloqalar uchun zamin hozirlaydi. U tufayli bolaning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari shakllandи va oydinlashadi, uni aks ettirish shakllari takomillashadi.

Bolaning nutqni o‘zlashtirishi uning xatti-harakatlarini anglash, rejorashtirish va tartibga solishga imkon beradi. Nutqiy muomala faoliyatning turli shakllarini rivojlantirish va jamoa mehnatida ishtirok etish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi.

U yoki bu darajadagi nutq buzilishlari (nutq buzilishlarining xususiyatiga bog‘liq holda) bolaning barcha ruhiy rivojlanishlariga salbiy ta’sir etadi, uning faoliyatida, yurish-turishida aks etadi. Og‘ir nutqiy buzilishlar aqliy rivojlanishga, ayniqsa, bilish faoliyati oliy darajalarining shakllanishiga ta’sir etishi mumkin. Bu nutq va tafakkurning chambarchas bog‘liqligi, ijtimoiy, jumladan nutqiy aloqalarning cheklanganligi bilan bog‘langandir. Bu jarayonda bolaning atrof-muhitni idrok etishi amalga oshadi.

Nutq buzilishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, aslida bo'lmagan ruhiy buzilishlarni, hissiy-irodaviy sohaning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqarishi, uning xarakteridagi salbiy fazilatlar (tortinchoqlik, qat'iyatsizlik, odamovilik, salbiylik, nomukammallik tuyg'usi)ning rivojlanishi uchun yo'l ochib berishi mumkin.

Bularning barchasi savodxonlikni egallahsga, umuman o'zlashtirishga, kasb tanlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, logopediya fanining ahamiyati bolaning nutqiy buzilishini bartaraf etish, shu bilan birga uning mukammal, har tomonlama rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Соломахина, Т. Н., Михалева, И. М., & Шевченко, Е. В. (2017). Использование коммуникационных технологий в коррекционно-развивающей работе с детьми с ОВЗ. Молодой ученый, (16), 496-498.
2. Eshmurodova, G. X., & Xushmurodova, A. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI MODULINI TAKOMILLASHTIRISHDA LOYIHAVIY TA'LIMNING AHAMIYATI. Science and innovation, 2(Special Issue 4), 399-400.
3. Muxtimovna, M. N. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH VA ULARNING SAMARADORLIGI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 36(5), 164-169.
4. Sherzodjon o'g'li, H. U. (2024). Importance of International Programs and Foreign Investments In Ensuring Tourism and Economic Growth of Our Country. MARKAZIY OSIYO MADANIY ME'ROSI VA TURIZM TENDENSIYALARI JURNALI (ISSN: 3060-4834), 1(2), 6-10.
5. Parwoni, M., & Usmonjon, H. (2024). ISLAMIC FINANCE AND ITS IMPACT ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(32), 242-245.
6. Sultani, G., & Usmonjon, H. (2024). STAGES OF INTEGRATION OF THE EDUCATIONAL SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF GLOBALIZATION. EDUCATION AND ECONOMY. MASTERS, 2(9), 74-79.
7. Sherzodjon o'g'li, H. U. (2024). THE ROLE OF AGRICULTURE IN THE DEVELOPMENT OF THE EXPORT POTENTIAL OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Лучшие интеллектуальные исследования, 28(1), 62-69.
8. Sherzodjon o'g'li, H. U. (2024). THE MAIN DIRECTIONS OF CHINA'S "ONE BELT-ONE ROAD" PROJECT AND THE IMPORTANCE OF UZBEKISTAN'S PARTICIPATION. Modern education and development, 9(1), 77-86.
9. Sherzodjon o'g'li, H. U. (2024). POSSIBILITIES OF USING CHINESE EXPERIENCE IN COMBATING POVERTY IN UZBEKISTAN. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 28(1), 52-58.